



# MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMUY JURNALI



## Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish instrumentlari va ularning qo'llanish xususiyatlari

**Alikulova Nilufar Bahodir qizi**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Yozishmalar uchun elektron pochta: [alikulova95@gmail.com](mailto:alikulova95@gmail.com)

### Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqt: 23.02.2023

Qabul qilingan vaqt: 27.03.2023

**Tayanch so'z va iboralar ekologik muammolar, moliyaviy instrument, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya, yashil sukuk, yashil kredit, yashil obligasiyalar.**

### Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kundagi ekoliya va iqtisodiyotning o'zaro bir-biriga ta'siri ko'rib chiqilgan. Global ekologik muammolarni zamonaviy moliyaviy instrumentlarni faol joriy etish orqali bartaraf qilish imkoniyatlari bo'yicha turli olimlar yondashuvlari o'rganilgan. Mamlakat iqtisodiyotida uchraydigan ekologik xavflarni kamaytish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni bo'yicha olib borilgan ishlardan tahlil qilingan va bu borada taklif hamda tavsiyalar keltirilgan.

## Green economy financing instruments and their application features

**Alikulova Nilufar**

PhD student of the Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan

Corresponding author: email: [alikulova95@gmail.com](mailto:alikulova95@gmail.com)

### ARTICLE INFO

Received: 23.02.2023

Accepted: 27.03.2023

**Key words:** environmental issues, financial instrument, green economy, renewable energy, green sukuk, green credit, green bond.

### Abstract

This article examines the interaction of today's ecology and economy. Various approaches of scientists have been studied on the possibility of eliminating global environmental problems through the active introduction of modern financial instruments. In order to reduce the environmental risks in the country's economy, the work carried out on the process of transition to a green economy has been analyzed, and suggestions and recommendations have been made in this regard.

## Kirish

Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy siyosat yuritish jarayonida ko'plab yuzaga keladigan muammolar mamlakatlarda o'xshash yoki ayni shaklda bo'lismeni uchratishimiz mumkin. Xususan, global miqyosda xavf soladigan muammolar aksariyat qismi tabiat hodisalariga bevosita bog'liqidir. Dunyo aholisi sonining ortib borishi natijasida ishlab chiqarishga ehtiyoj ham ortishi kuzatilmoqda. Bu vaziyat iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi, energiya, tabiiy gaz va suvga talab ortishi natijasida muammolarning

kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ko'plab xorij mamlakatlari va mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotga o'tish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilishi shart bo'lib qolmoqda. Yashil iqtisodiyotni iqtisodiy soha sifatida kiritish orqali ko'plab global uchraydigan muammolarga yechim topish nazarda tutilgan. Bunda energiya tejamkorligini ta'minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun zaruriy texnologiyalarni aniqlash va qo'llash, suvdan oqilona foydalananish va qurg'oqchilik muammolarini hal qilish, mamlakat barcha hududlarini suv bilan to'liq ta'minlash, qishloq xo'jaligi sohasini yaxshilash natijasida tabiiy yo'l bilan yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlar ishlab

chiqarish orqali aholi yashash sharoitlarini yaxshilab borish asosiy maqsad qilib belgilab olingen.

Mamlakatimizda ham jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi natijasida resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshishi kabi muammolar yechimi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga O'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingen[1].

Keltirilgan muammolarni hal qilish, qo'yilgan maqsadlarga erishish moliyaviy ta'minot masalasiga bevosita bog'liq. Shu boisdan qo'llanilishi tobora kengayib borayotgan moliyalashtirishning yashil instrumentlarini faol qo'llash shart bo'lib qolmoqda.

## Adabiyotlar sharhi

Jahonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanishi sababli bu borada ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishmoqda. Xorijiy olimlardan Suaad Hadi Hassan Al-Taai yashil iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri bu yashil iqtisodiyotga to'sqinlik qiladigan va unga erishadigan siyosat va qoidalarni isloh qilish zarurati hisoblanishi bo'yicha xulosalarini keltirib o'tgan [2].

L.D.Georges, M.Maslin va P.Martin tadqiqotlariga ko'ra yashil iqtisodiyot asoslari va amaliyotlari ekologik barqarorlikka, chiqindilarni kamaytirishga, ijtimoiy adolatga va barqaror iqtisodiyotga erishish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy qayta tashkil etish turlari bo'yicha davom etayotgan munozaralar uchun mos kelishi to'g'risida xulosaga kelishgan [3].

Sunny Samanta 2019-yil 16-iyulda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha yuqori darajadagi forumida e'lon qilingan "Inklyuziv yashil iqtisodiyotning tamoyillari, ustuvor yo'naliishlari va yo'llari" nomli maqolaga ko'ra, quyidagi yashil iqtisodiyotning beshta asosiy tamoyillari ishlab chiqilganini aytib o'tgan[4]:

1. Farovonlik tamoyili
2. Adolat tamoyili
3. Sayyora chegaralari tamoyili
4. Samaradorlik va yetarlilik tamoyili
5. Samarali boshqaruv tamoyili.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi ta'rifiga ko'ra yashil moliyalashtirish - bu davlat, xususiy va notijorat sektorlaridan barqaror rivojlanish ustuvorliklarigacha bo'lgan moliyaviy oqimlarni (bank, mikrokredit, sug'urta va investisiyalarni) oshirishdir. Buning asosiy qismi ekologik va ijtimoiy xavflarni samarali boshqarish, munosib daromad va atrof-muhitga foyda keltiradigan imkoniyatlardan foydalanish va katta mas'uliyatni ta'minlash deb hisoblashadi[5].


G.Zhou, J.Zhu va S.Luo ilmiy izlanishlariga ko'ra yashil iqtisodiyotda moliyaviy texnologiyalar innovatsiyasi asosan yashil kredit va yashil investitsiyalar orqali yashil iqtisodiy o'sishga yordam berishi haqida xulosaga kelganlar. Shu sababli fintech innovatsiyalari yashil moliyaning rivojlanish darajasini oshirish oshirish orqali yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mumkinliga va bu ko'p mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tishgan [6].

Yi Chi, Yang Yang o'z tadqiqot ishlari har bir mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida asosiy bosqich sifatida iqlim o'zgarishiga qoniqarli javob bera oladigan milliy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish masalasi turganini aytishgan. Ushbu o'tish barqaror biznes modellariga ega bo'lishi, hamda ular nima moliyalashtirilishi, qanday moliyalashtirilishi, moliyaviy kapital va moliyaviy instrumentlarni faol ishlatish orqali yashil moliyani kengaytirish imkoniyatini oshirish mumkinligi va zarurligi muhim ahamiyat kasb etishi haqida xulosalarini berib o'tgan [7].

## Tahlil va natijalar muhokamasi

Butun dunyo aholisi soni ko'payishi muttasil ravishda davom etmoqda va natijada tabiiy resurslar zaxirasini tobora qisqarib bormoqda. Dunyo bo'ylab investorlar o'zlarining moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va barqaror kelajakka hissa qo'shish yo'llarini izlamoqda. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va qashshoqlik kabi global muammolarni hal qilish uchun ko'proq sarmoya talab etiladi. Oxirgi o'n yildan ortiq vaqt davomida obligasiyalar bozorlari ushbu qiyinchiliklarga qarshi turish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) erishishga yordam berish uchun imkoniyatlar yaratdi.


So'nggi yillarda dunyoning barcha mamlakatlarida eng muhim ustuvor yo'naliishlardan biri hisoblanib kelayotgan yashil obligasiyalar yashil iqtisodiyot rivojlanishini jadallashtiradi. Yashil obligasiyalar iqlim va ekologik muammolarni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan loyihalarga mablag' yo'naltirishga alohida mo'ljallangan barqaror daromadga ega moliyaviy vosita hisoblanadi. Yashil obligasiya - bu atrof-muhit va iqlimga ijobiy hissa qo'shadigan loyihalarni moliyalashtirish yoki qayta moliyalashtirish maqsadida tashkilot tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozni hisoblanadi. Yashil obligasiyalar asosan an'anaviy obligasiyalar bilan bir xil: investor tomonidan loyihani moliyalashtirish uchun tashkilotga berilgan qarz mablag'lari bo'lib, investor obligatsiya muddati tugagandan so'ng asosiy qarz miqdorini qaytarib oladi, muddat davomida foiz ko'rinishidagi daromadlarga ega bo'ladi. Yashil obligasiya va an'anaviy obligasiya o'rtasidagi asosiy farq bu jalb qilingan mablag' bilan moliyalashtiriladigan asosiy loyihadir. Yashil obligasiyalar faqat atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi (1-rasm). Boshqa tomonidan, an'anaviy obligasiyalar birinchi navbatda umumiy loyihalarni moliyalashtirish, umumiy aylanma mablag'lar maqsadlari yoki mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish uchun chiqariladi



**1-rasm. Yashil obligasiyalar orqali moliyalashtiriladigan loyiha turlari [8].**

Global Landscape of Climate Finance e'lon qilgan so'nggi hisobotiga ko'ra, 2019–2020-yillarda iqlim bilan bog'liq moliyalashtirishning umumiyyatini 632 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Buning 321 milliard dollari jamoatchilik manbalari hisobidan, 310 milliard dollari esa xususiy manbalar tomonidan moliyalashtirilgan. "Yashil" moliyalashtirish vositalari orqali investisiyalarni davlat ishtirokisiz amalga oshirish, mablag' jalb qilish, moliyaviy foyda olish va ekologik muammolarini kamaytirish imkoniyatiga erishish mumkin. O'zbekiston Respublikasi "yashil" moliyalashtirish vositalaridan "yashil" kreditlar va obligasiyalar ko'rinishida 2021 yil iyul oyida London fond birjasiga 2,5 trillion so'm qiymatiga ega 3 yillik muddatga davlat obligasiyalarini (SDG) joylashtirdi. Yevrobondlar AQSh dollari uchun 3,9% kupon bilan 10 yil muddatga va so'm uchun 14% kupon bilan 3 yil muddatga chiqarildi. Bu obligasiyalar orqali olingan mablag'lar 9 ta aniq milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ko'zda

tutuvchi tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi [9]. Asosiy qismi aynan yashil iqtisodiyotini rivojlantirishda maqsad qilib olingen rejalarini amalga oshirish uchun safarbar etilishi ko'zda tutilgan. Xususan, butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarini hal etishga qaratilgan BMT tomonidan ishlab chiqilgan 2030 yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bo'yicha 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsadlarini moliyalashtirish bo'yicha foydalanish ko'zda tutilgan edi. BRM maqsadlarining aksariyat qismi aynan ekologiya muammolarini bartaraf etish uchun mo'ljallangan. BRM obligasiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar yashil loyihalarni amalga oshirishga, sog'liqni saqlash, ta'lim, suv ta'minoti va irrigasiya hamda jamoat transporti kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Belgilab olingen yashil loyihalarni amalga oshirishda bevosita muqobil moliyalashtirish instrumentdaridan foydalilanadi (2-rasm).



**2-rasm. "Yashil" loyihalarni moliyalashtirish instrumentlari [10]**

O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi BRM sohasidagi 16 ta milliy maqsadlarini belgilab oldi. Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar Yer yuzida qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo'lislini ta'minlash bo'yicha global miqyosda harakat qilishga da'vat hisoblanadi.

2008 yilda Jahon banki tomonidan chiqarilgan birinchi yashil obligasiyadan boshlab, ekologik va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi yashil obligasiyalarga

investisiyalar jalb qilish qariyb 4 trillion dollargacha o'sdi. Ushbu o'sish sezilarli darajada bo'lsa ham, 100 trillion dollarlik boshqa turdag'i barcha obligasiyalar bozorining bir qismini tashkil qiladi xolos [11].


Bugungi kunda yashil obligasiyalar milliy bozorini shakllantirish va xalqaro bozorlarga chiqish O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy amaliyot tahviliga asosan, yashil obligasiyalar va qarzlar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning maxsus vositasini hisoblanib, obligasiyalar emitentlari va investorlarining mulkiy manfaatlarini, ham jamiyat va davlatning ekologik

vaziyatni yaxshilash borasidagi vazifalarini ijobiy hal qilishga imkon beradi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini amalga oshirish chora-tadbirlariga ko'ra jalb qilingan davlat tashqi qarzlarini samarali taqsimlash va yashil loyihalarning daromadlilik stavkalarini oshirish siyosatini joriy etish amalga oshirilmoqda. Jalb qilingan tashqi qarzi 2022 yilning yanvar-sentabr oylaridagi bitimlariga muvofiq "Yashil iqtisodiyotga o'tish" loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan 150.0 mln yevro qiyamatida, 20 yillik muddatga berildi. Bu loyihami amalga oshirishda tashabbuskor ijobiy o'rni O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va Moliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyasida davlat budgeti xarajatlarini barqaror rivojlantirish maqsadida "Yashil budget" tamoyilarini ham joriy qilish uslubiyotini ishlab chiqish choralar ko'rishi belgilab olingan. Bunga ko'ra "Yashil budget" - budgetdan moliyalashtirilayotgan tadbirlarning (xarajatlarning) iqlim o'zgarishiga, ekologik holatga hamda havoga chiqariladigan zararli gazlarning kamayishiga ta'siri nuq'tai nazardan tasniflashdan iborat [12].

Yevropa Ittifoqidagi 11 ta davlatga "Yashil budget" joriy etilgan va qolgan davlatlar ham unga o'tish metodologiyasini ishlab chiqish, hodimlarini o'qitish va boshqa tayyorgarlik ishlarini boshlagan. "Yashil iqtisodiyotga o'tish" loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan boshqarilishi tanlab olingani bejizga emas. Sababi Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida Fransiya so'nggi ikki yil davomida "Yashil budget" yo'nalishida ilg'or mamlakat hisoblanadi. "Yashil budget" tizimini joriy qilish uchun Fransiya taraqqiyot agentligi bilan quyidagi maxsus choratadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan[12]:

- "Yashil budget" metodologiyasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, joriy etish va bu sohada tegishli mutaxassislarni o'qitish;



3-rasm. Yashil obligasiyalar emissiyasi (AQSh dollarri, trln)[13].

Umumiy yillik yashil investisiyalar (yashil obligasiyalar, yashil kreditlar va yashil sukuk) 2020-yilda rekord darajadagi \$297 milliardga yetdi. 2021-yil 3-choragi oxirida taqvim yili uchun yashil obligasiyalar emissiyasi 354 milliard dollarni tashkil etib, o'tgan yillardagi rekorddan oshib ketdi. Bozor o'shining tezlashishi Climate Bonds Market Intelligence kompaniyasini 2021 yil uchun prognozini yarim trillionga (500 milliard dollarga) ko'tarishga olib keldi, bu 2021 yil yanvar oyidagi prognoziga qaraganda 400-450 milliard

- Barqaror (yashil) davlat xaridlari standartlari va indikatorlari yuzasidan treninglar o'tkazish, uni ishlab chiqish bo'yicha yo'l xaritasini shakkantirish;

- "Yashil" soliq siyosati yuzzasidan mahalliy mutaxassislariga treninglar o'tkazish hamda soliq tizimini iqlim o'zgarishiga ta'siri yuzasidan dastlabki o'rganishlar o'tkazish;

- "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini joriy etishga doimiy maslahatchi ajratish orqali texnik ko'mak ko'rsatish.

Fransiya tajribasiga asosan budget xarajatlarining ekologik holatga, iqlimga ta'siridan kelib chiqib, to'q yashil rang (iqlim uchun ijobiy), och yashil rang (iqlim o'zgarishiga ijobiy, lekin ayrim salbiy ta'siri bo'lishi mumkin, lekin ijobiy ta'siri ustunlikka ega), kul rang (iqlimga ta'siri neytral), jigar rang (iqlimga va atrof-muhitga ta'siri salbiy) kabi ranglar bilan tasniflanadi. Ranglar orqali tasniflab olingan budget xarajatlarini qoplash maqsadida moliyaviy instrumentlarni to'g'ri tanlagan holatda joriy qilish, jalb qilish orqali yashil iqtisodiyot oldiga qo'ygan chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish mumkin bo'ladi. Jalb qilinadigan moliyaviy instrumentlardan eng muqobil turlari tanlab olinadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish nafaqat mamlakatimiz balki ko'plab xorijiy davlatlarda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli rivojlanishi uchun strategik yo'nalish sifatida qabul qilingan.

Iqlim obligasiyalar bozori (Climate Bonds Market Intelligence) ma'lumotlariga ko'ra yashil obligasiyalar bozorining doimiy tezlashishi 2021 yilda yashil obligasiyalar bozorini yarim trilliondan biroz ko'proq qiyamatga (517,4 milliard dollar) ega bo'ldi (3-rasm). Yillik ko'rsatkich bozor paydo bo'lganidan beri eng yuqori ko'rsatkichga erishib, 10 yillik o'sish tendensiyasini saqlab qolishga erishdi [13].


dollarga oshganini ko'rish mumkin. 2021 yil oktyabr oyida o'tkazilgan iqlim obligasiyalar bozori so'rovnomasi natijalari ham ijobiy bo'lib, investorlar tomonidan qollab-quvvatlanadgan global yashil investisiyalar 2022 yil oxiriga kelib bir yilda 1 trillion dollarga yetishi mumkinligini prognoz qilishgan edi. Global ekologik muammolarni bartaraf etish uchun amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihami uchun keyingi 2025 yilga qadar yashil obligasiyalar uchun 5 trillion miqdorda investisiya jalb qilish prognoz qilingan[13].

Yashil moliyalashtirish instrumentlari tarkibiga 2017 yildan boshlab dunyo mamlakatlari moliya bozorida yangi instrument sifatida shakllanib sezilarli darajada o'rIN egallagan islam qimmatli qog'ozni yashil sukukdan foydalanish talabi ham tobora ortib bormoqda. Yashil sukuk - bu qayta tiklanadigan energiya va boshqa ekologik aktivlarga shariatga muvofiq investisiyalar kiritish imkoniyatini beruvchi moliyaviy instrument hisoblanadi.

Yashil sukuk bozori yashil obligasiyalar bozoriga qaraganda sekinroq rivojlandi va hali boshlang'ich bosqichida. Dunyodagi birinchi yashil sukuk (RM250 million) 2017-yil iyul oyida Malayziyaning qayta tiklanadigan energiya firmasi tomonidan yirik quyosh energetikasi stansiyalari qurilishini qo'llab-quvvatlovchi tushumlar uchun emissiya qilingan. Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng yirik quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishini moliyalashtirish uchun 2018-yil oktabr oyida alohida qayta tiklanadigan energiya firmasi tomonidan ikkinchi yashil sukuk (RM1 milliard qiymatida) chiqarildi. 2018 yil mart oyida Indoneziya o'zining birinchi suveren yashil

sukuk chiqardi va 1,25 milliard dollar kapital jalb qildi [14].

2016-yilda Jahon banki Global bilim va tadqiqot markazi guruhi Markaziyaning yashil moliyalashtirish dasturini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Malayziya Banki va Qimmatli qog'ozlar komissiyasi bilan Texnik ishchi guruhiga yashil moliyalashtirish bo'yicha bilim va tajribalaridan foydalangan holda qO'shildi. Dastur dastlab Malayziyada, keyin esa ASEAN mintaqasidagi yashil islam moliya bozorlarini rivojlantrish orqali yashil yoki barqaror loyihalarga investisiyalarini rag'batlantirishga qaratilgan edi. Dastur 2017-yil 27-iyun kuni dunyodagi birinchi yashil sukukning ishga tushirilishini qo'llab-quvvatladи. Sukuk yashil islam obligasiyasi bo'lib, undan tushgan mablag'lar qayta tiklanadigan energiyani qurish kabi muayyan ekologik barqaror infratuzilma ishlab chiqarish inshootlari loyihasini moliyalashtirishga sarflanishi belgilab olindi.



**4-rasm. Yashil va barqaror sukuk emissiyasi (AQSh dollar, million) [15].**

Yashil obligasiyalarga nisbatan yashil sukuklar emissiyasi hajmi kam miqdorda bo'l shiga qaramasdan, yaqinda paydo bo'lgan moliyaviy instrument sifatida yetarli darajada loyihalarni amalga oshirish uchun chiqarilmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiya davridan oldin ham yashil va barqaror sukuk 2019-yilda ikki baravardan ko'proq o'sish sur'atini kuzatgan edi. Pandemiya davrida ushbu sukuk emissiyalari o'zining o'sish traektoriyasini davom ettirdi va 2020 va 2021-yillarda yangi rekordlarni O'rnatdi. 2017 – 2022 yillar kesimida yashil va barqaror sukuklar emissiyasi bo'yicha ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, pandemiya davriga qadar sezilarli darajada yashil sukuklar emissiyasi amalga oshirilgan va 2019 yilda (3649 million AQSh dollar) eng ko'p miqdordagi emissiyani amalga oshirgan (4-rasm). 2020 yildan keyin ham yashil sukuk emissiya miqdori keskin kamayish kuzatilmadi. O'zining o'rtacha qiymati barqarorligini ta'minlab turdi. Ahamiyatlari jihatni barqaror sukuk emissiya midori 2017-2019 yillar davomida yashil sukuk emissiya miqdorining o'ndan bir qismiga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich pandemiya davridan so'ng o'zgardi. Barqaror sukuk hajmi 2020 va 2022 yillarda yashil sukuk hajmiga deyarli teng miqdorda emissiya qilingan. 2021 yilda barqaror sukuk hajmi yashil sukuk hajmiga nisbatan 3 barorbar ko'proq qiymatda emissiya qilingan va

dastlabki emissiya hajmiga nisbatan rekord natijaga erishgan.

## Xulosa va takliflar

Butun jahon mamlakatlari iqtisodiyoti yashil iqtisodiyotga muhtojlik sezayotgan bir paytda yashil loyihalarni amalga oshirishda foydalaniladigan barcha turdag'i instrumentlarni joriy qilish va yuqori darajada foydalanish talab qilinadi. Xususan, yashil obligasiyalar va yashil sukuk emissiya hajmini ko'paytish uchun amalga oshirish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, BMT tomonidan ishlab chiqilgan 2030 yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bo'yicha 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsadlarini moliyalashtirish uchun yashil loyiha instrumentlarini keng doirada joriy qilish lozim.

Ikkinchidan, yashil sukuk bo'yicha ilk joriy qilgan davlatlardan Malayziya va Indoneziya tajribalarini atroflichcha o'rganish lozim. Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng yirik quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi va qayta tiklanadigan energetika loyihalarni amalga oshirish uchun emissiya qilingan yashil sukuk bo'yicha tajribalarini o'rganish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llash lozim.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot barcha mamlakatlar uchun global ahamiyat kasb etayotganligi, so'nggi yillarda yashil obligasiya va yashil sukuk emissiyasi ortishi hisobiga, mamlakatimizda ham ayni shu kabi yashil loyiha instrumentlaridan foydalanish ko'lамини keng joriy qilish, bu orqali xorijiy investorlar salmog'ini oshirishga ega bo'lish ishlari amalga oshirilishi lozim.

To'rtinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy infratuzilma loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yashil sukuk va yashil kreditlarni joriy qilish va amaliyotda qo'llash orqali mamlakatimiz infratuzilmasi bilan bog'liq muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, mamlakatimiz aksariyat qismi musulmon aholidan tashkil topgani sababli, 2030 yilga qadar amalga oshirilishi maqsad qilib olingan yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlarini yashil loyiha instrumentlari, xususan, yashil sukuk emissiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2030 yilgacha O'zRning "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.  
<https://president.uz/oz/lists/view/5805>
2. Suaad Hadi Hassan Al-Taai. Green economy and sustainable development. 2021 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. [https://www.researchgate.net/publication/352916345\\_Green\\_economy\\_and\\_sustainable\\_development](https://www.researchgate.net/publication/352916345_Green_economy_and_sustainable_development)
3. Lucien Georges, Mark Maslin and Martyn Poessinouw. The global green economy: a review of concepts, definitions, measurement methodologies and their interactions. Geo: Geography and Environment . January 2017. [https://www.researchgate.net/publication/316334130\\_The\\_global\\_green\\_economy\\_a\\_review\\_of\\_concepts\\_definitions\\_measurement\\_methodologies\\_and\\_their\\_interactions](https://www.researchgate.net/publication/316334130_The_global_green_economy_a_review_of_concepts_definitions_measurement_methodologies_and_their_interactions)
4. <https://www.opengrowth.com/resources/the-principles-of-green-economy>
5. UNEP Green Financing | UNEP - UN Environment Programme
6. G.Zhou, J.Zhu, S.Luo. The impact of fintech innovation on green growth in China: Mediating effect of green finance. Ecological Economics. Vol.193, March 2022. The impact of fintech innovation on green growth in China: Mediating effect of green finance - ScienceDirect
7. Yi Chi, Yang Yang. Green finance and green transition by enterprises: An exploration of market-oriented governance mechanisms. Borsa Istanbul Review. Available online 20 January 2023. Green finance and green transition by enterprises: An exploration of market-oriented governance mechanisms - ScienceDirect
8. Corporate finance institute <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/esg/green-bond/>
9. Spot.uz <https://www.spot.uz/oz/2021/07/13/eurobonds/>
10. Yangi O'zbekiston. Sayyorani qutqarishning "yashil" dastaklari (yuz.uz)
11. Jahon bank rasmiy internet blog sahifasi. Why green bonds matter - it may be more than you think (worldbank.org)
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi "2023-2025 yillar uchun Fiskal strategiyasi" [https://admin.openbudget.uz/media/post\\_attachments/2023\\_2025](https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025)
13. Climate Bonds Initiative <https://www.climatebonds.net/2022/01/500bn-green-issuance-2021-social-and-sustainable-acceleration-annual-green-1tn-sight-market>
14. Simon Thompson. Green and sustainable finance principles and practice. 2020. -p.390.
15. Refinitiv. Green and sustainability sukuk set new records. <https://www.refinitiv.com/perspectives/market-insights/green-and-sustainability-sukuk-set-new-records/>